

Q.KARIMOVA

YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI

3-SINF O‘QUVCHILARI
UCHUN AMALIY
MASHG‘ULOTLAR DAFTARI

MAJBURIY
NUSXA



TOSHKENT-2013

74.200.58 - Uyi xarakati bo'yongan.

UO'K: 351.811.122
: 39.808
Y-58

Yo'l harakati xavfsizligi: 3-sinf o'quvchilari uchun amaliy mashg'ulotlar daftari/
«Avtohamroh» jurnali; tuzuvchi muallif: Q. Karimova. — Toshkent: Yurist-media
markazi, 2013. - 32 b.

ISBN 978-9943-387-89-8

UO'K: 351.811.122
: 39.808

Tuzuvchi muallif:

Qumrixon KARIMOVA, «Avtohamroh» jurnali Bosh muharriri,
filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchi:

Xayrullo MAMATOV, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

Muharrir: Adiba Hamro qizi

Texnik muharrir: Muhridin Hamroyev

Dizayner, sahifalovchi: Eldor Karimov

Musahhih: Suxrobjon Avvalboyev

Nashriyot litsenziyasi: AI № 221, 16.11.12.

Bosishga ruxsat etildi: 10.05.2013 yil.

Shartli bosma tabog'i: 2,0. Nashr tabog'i: 1,2.

Bichimi: 84x108 ¹/₁₆. Respect garniturasida. Ofset bosma.

Adadi: 3000.

22-12 — buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot manzili:

«Yurist-media markazi» nashriyoti,
Toshkent shahri, Otchopar ko'chasi, 82-uy.

Tel.: 230-04-74, (+99894) 181-27-80.

E-mail: yurist_media@mail.ru

Bosmaxona manzili:

Toshkent sh., Kichik Xalqa yuli

MChJ «Exclusive print»


bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi: 27.06.13 y.

Adadi: 3000 nusxa. Buyurtma № 182

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilingan, suratlar va sharhlar
«Avtohamroh» tahririyatiga tegishlidir. «Avtohamroh» jurnali tahririyati roziligisiz,
kitobni o'zga usulda chop etish va ko'paytirish taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-387-89-8 Navoiy



© «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2013 yil
© «Avtohamroh» jurnali

Mening yosh do'stim!

Siz yo'llardan to'g'ri va xavfsiz o'tishni, ko'chalarda qanday harakatlanish kerakligini bilib oldingiz. Endi bu kitobcha orqali yanada ko'p narsani bilib olasiz. Kitobchadagi barcha topshiriqlarni bajarib, intizomli va madaniyatli piyodaga aylanasiz, degan umiddamiz.

Sizga omad tilaymiz!












1-MASHG'ULOT

YO'LDAGI AVTOHALOKATLARNING SABABLARI

1-Topshiriq

Rasmlarni yaxshilab o'rganing. Agar bolalar o'zlarini to'g'ri tutayotgan bo'lsalar, ajratilgan joyga (+) belgisini, noto'g'ri harakat qilayotgan bo'lsalar (-) belgisini qo'yib chiqing. So'ngra katak ichiga nechta to'g'ri harakat qilingan rasm sonini va nechta noto'g'ri harakat qilingan rasmlar sonini yozing.





2-MASHG'ULOT




SVETOFOR VA YO'L BELGILARI

SVETOFOR – bu o‘z ishoralari bilan avtomobillar va piyodalar harakatiga ruxsat beruvchi yoki taqiqlovchi qurilma. Unda yorug‘lik chiroqlari ketma-ket joylashtirilgan: qizil, sariq, yashil. Svetoforlar yo‘llarning eng xavfli joylariga o‘rnatiladi. Yo‘ldan o‘tayotganingizda, yashil chiroq miltillab turgan bo‘lsa kutib turing, u to‘liq yongandan so‘ng yo‘lni kesib o‘ting.

1-Topshiriq

Berilgan svetoforlardan qaysi biri piyodalar va qaysi biri avtomobillar uchun?

Avtomobillar uchun svetofor yoniga avtomobil, piyodalar svetofori yoniga esa odamchanning rasmini chizing.



2-Topshiriq

Yo‘l belgilariga diqqat bilan qarang.

Uchburchak shaklidagi qizil hoshiyali belgilar – ogohlantiruvchi belgilardir.



Bolalar



Piyodalar
o‘tish joyi



Yo‘l-ta‘mirlash
ishlari



Velosiped
yo‘lakchasi
bilan kesishuv
joyi

Dumaloq qizil hoshiyali belgilar – taqiqlovchi belgilardir.



Piyodalarning
harakatlanishi
taqiqlanadi



Velosipedda
harakatlanish
taqiqlanadi



Kirish
taqiqlanadi



Harakatlanish
taqiqlanadi

To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi belgilar — bular axborot-ishora belgilaridir.



Piyodalar
o‘tish joyi



Piyodalarning
yer ustidan
o‘tish joyi



Piyodalarning
yer ostidan
o‘tish joyi

Moviy dumaloq – BUYURUVCHI BELGILAR



Piyodalar
yo'lkasi



Velosiped
yo'lkasi

3-Topshiriq

Kataklar ichiga yo'l belgilarining nomlanishiga qarab sonlarni yozib chiqing.



1



2



3



4

- Piyodalar harakati taqiqlanadi

- Velosipedda harakatlanish taqiqlanadi

- Piyodalar o'tish joyi (piyodalar uchun belgi)

- Piyodalar o'tish joyi (haydovchilar uchun belgi)

4-Topshiriq

Savollarni o'qing va to'g'ri javobni belgilang.

Yo'ldan kesib o'tish joyida svetoforning qizil chirog'i yonganda nima qilish kerak?

- a) yo'lni tez kesib o'tish;
- b) darhol to'xtab, ikki yonga qarab, mashinalar yo'qligini ko'rib, keyin o'tish;
- v) svetoforning yashil chirog'i yonishini kutib, oldin chapga, keyin o'ngga, yana bir marta chapga qarab mashinalar yo'q bo'lsa, faqat shundagina yo'lni kesib o'tish kerak.

Agar yo'ldan kesib o'tishingiz kerak bo'lsa va yaqin orada piyodalar o'tish joyi va svetofo bo'lmasa, nima qilish kerak?

- a) yo'lni ajratuvchi chiziqlar va to'siqlar bo'lmagan joydan to'g'ri yurib, avval chapga, o'rtaga kelganda esa o'ngga qarab, mashinalar yo'qligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, kesib o'tish;
- b) qulay joydan tezroq o'tib olish kerak.

5-Topshiriq

O'zingiz bilgan piyodalar uchun mo'ljallangan yo'l belgilarini yozing.



1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

3-MASHG‘ULOT

XAVFLI CHORRAHALAR VA TRANSPORT VOSITALARINING XAVFLI BURILISHLARI HAQIDA NIMALARNI BILISHIMIZ KERAK?

1-Topshiriq

Rasmlardagi chorrohalarga diqqat bilan qarang.



Rasmdagi tartibga solingan (boshqariluvchi) chorraha ostidagi kataklar ichiga (+) belgisini, tartibga solinmagan (boshqarilmaydigan) chorraha ostiga esa (-) belgisini qo‘ying. Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz, izohlab bering.

Tartibga solingan chorraha tartibga solinmagan chorrahadan nimasi bilan farq qiladi?

2-Topshiriq

O‘ylab ko‘rib, javob bering:

1. Chorrahadagi avtomobil haydovchisi to‘g‘riga, o‘ngga yoki chapga yurishi mumkin. Avtomobil qaysi tarafga yurishini qanday aniqlash mumkin?

2. Piyoda boshqarilmaydigan chorrahadan yo‘lni kesib o‘tishi kerak. Buni qanday amalga oshiradi? Uning harakatlarini yozib chiqing.

1. _____

2. _____

3. _____

4. _____

5. _____

3. Piyoda boshqarilmaydigan chorrahadan o‘tayotib, yo‘ldan o‘tishga ulgurmay, yo‘l o‘rtasida to‘xtab qoldi. Birdan burilishdan ko‘p mashinalar chiqib keldi. Nima qilish kerak?

To‘g‘ri javobni dumaloq belgi bilan belgilang.

1. Yo‘ldan yugurib o‘tish.

2. Yo‘l qatnov qismining o‘rtasida harakatlanmay turib, mashinalar o‘tib ketishini kutish.

3. Mashinalar yo‘q bo‘lsa, orqaga qaytish.




3-Topshiriq

Rasmdagi bu bola yo‘l chizmasiga qarab turibdi. Unga manziliga xavfsiz yetib borishiga yordam bering:

- 1) o‘z do‘sti yashaydigan uygacha;
- 2) do‘sti yashaydigan uydan bog‘gacha;
- 3) bog‘dan do‘kongacha.
- 4) do‘kondan o‘zi yashaydigan uygacha.

Bolaning yo‘nalishini turli rangdagi ko‘rsatkichlar bilan belgilab chiqing.




4-MASHG'ULOT

YO'LNING QATNOV QISMINI KESIB O'TISH QOIDALARI

1-Topshiriq

Mashinalarning konturini chizing va harakat chizig'i nimaga kerakligini tushuntiring.



Transportning bu tarzda harakatlanishi qanday atalishini yozing.


				t					l	a		
--	--	--	--	---	--	--	--	--	---	---	--	--

h	a	r	a	k	a	t	l	a	n	i	s	h
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

2-Topshiriq


Rasmni bo'yang:

- | | |
|---------------------------|------------------|
| 1) yo'lning qatnov qismi; | 5) piyoda; |
| 2) trotuar; | 6) avtomobillar; |
| 3) piyodalar o'tish joyi; | 7) uy; |
| 4) svetofor; | 8) daraxt. |



3-Topshiriq

Rasmga qarang, agarda yaqin joyda piyodalar o'tish joyi bo'lmasa, tramvay yo'lini qanday to'g'ri kesib o'tish mumkinligini aytib bering.




5-MASHG'ULOT

AVTOMOBILNING TO'LIQ TO'XTASHI VA TORMOZLANISH MASOFASI

1-Topshiriq

Suratda avtomobilning to'liq to'xtash va tormozlanish masofasi ko'rsatilgan.

Mashina to'liq to'xtashi uchun haydovchi quyidagilarni bajarishi kerak:



ESLAB QOLING

To'xtash masofasi – bu haydovchining piyoda yoki yo'lda biror-bir to'siqni ko'rgandan so'ng avtomobilning to'liq to'xtash oraliq masofasidir.

Tormoz masofasi – bu mashinaning tormoz pedali bosilgan lahzadan to'liq to'xtagunga qadar bo'lgan oraliqdir.

TUSHUNTIRING

1. Nima uchun piyodalar avtomobilning to'xtashi, tormoz masofasi va haydovchining bu holatlarni sezish vaqtlarini bilishlari kerak?

2. Tushuntiring, nima uchun to'xtash yo'li tormoz masofasidan uzunroq?

2-Topshiriq

Savollarni o'qing va to'g'ri javobni dumaloq belgi bilan belgilang.

Agarda trotuar, piyodalar yo'lkasi yoki yo'l cheti bo'lmasa, piyodalar yo'lining qatnov qismi chetidan qanday yurishlari kerak:


a) transport harakatiga qarshi bir qator, ketma-ket bo'lib;

b) transport yo'nalishi bo'ylab;


v) qanday qulay bo'lsa va harakatdagi transport yaxshi ko'ringan joydan.

Uy vazifasi: 7- va 8-betlarni oching, qarang va yo'l belgilari tasvirini yodda saqlab qoling. Ularni eslab chizing va bo'yang. So'ngra ularning to'g'riligini tekshirib ko'ring.


Ogohlantiruvchi yo'l belgilari




Bolalar



Piyodalar o'tish joyi




Ta'mirlash ishlari




Velosiped yo'lkasi bilan kesishuv


Taqiqlovchi yo'l belgilari




Piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi



Velosipedda harakatlanish taqiqlanadi



Kirish taqiqlanadi




Harakatlanish taqiqlanadi

Keyingi sahifani oching.

Axborot-ishora belgilari



Piyodalar o'tish joyi




Piyodalarning yer ostidan o'tish joyi



Piyodalarning yer ustidan o'tish joyi

Buyuruvchi belgilar



Piyodalar yo'lkasi



Velosiped yo'lkasi

Agarda Siz 13 ta yo'l belgilarini yodda saqlab qolgan bo'lsangiz – xotirangiz a'lo darajada, 10 ta bo'lsa – yaxshi, 10 tadan kam bo'lsa – unda Topshiriqni qaytadan bajarishingiz kerak.

NAZORAT SAVOLLARI

1.Nima uchun yaqinlashayotgan transportning oldidan yo'lni yoki ko'chani kesib o'tib bo'lmaydi?

2.Haydovchi birdaniga yo'lda paydo bo'lgan piyodani ko'rgan zahoti, darhol avtomobilni to'xtata oladimi?

3.Haydovchi va piyodalarga yomon ob-havo – qor, yomg'ir, tuman nimasi bilan xavfli?

4.Avtomobillarning to'xtash va tormoz yo'li nima degani?

5.Tormoz masofasining uzunligi nimaga bog'liq?

Ota-onangizga nazorat savollarini ko'rsating va ulardan javob berishlarini so'rang. Mashg'ulotlarda yana qanday yangi narsalarni o'rganganingizni aytib bering. Masalan, nima uchun haydovchi yo'lda birdaniga piyoda yoki to'siq paydo bo'lganida, mashinani darhol to'xtata olmasligini tushuntiring.

6-MASHG'ULOT

TEMIR YO'LNI KESIB O'TISH QOIDALARI


Temir yo'l kesishmasi tasvirlangan rasmga diqqat bilan qarang.

Yangi so'zlarni o'rganamiz.

Temir yo'l kesishmasi – bu temir yo'llardan kesib o'tish joyi.

Shlagbaum – qo'zg'aluvchan to'siq. Agarda to'siq tushirilgan bo'lsa – yo'l yopiq, ko'tarilgan bo'lsa – ochiq.

Yog'och qoplama – temir yo'ldan o'tayotganda qoqilmaslik uchun qilingan yog'och qoplama.



Yangi ogohlantiruvchi yo'l belgilarini eslab qoling:



Shlagbaumli temir
yo'l kesishmasi



Shlagbaumsiz temir
yo'l kesishmasi


1-Topshiriq


Rasmlarga qarang.

O'ylang va nima uchun bunday qilish mumkin emasligini tushuntiring. Nima qilish kerak edi?

O'g'il bolalarning o'ylashicha,
bu xavfli emas.

Aslida xavfli ekan.





2-Topshiriq

Quyida berilgan ogohlantiruvchi yo‘l belgilarida nimaning tasviri bo‘lishi kerakligini eslang. Chizing. Faqat oldingi sahifalarga qaramang!



Shlagbaumsiz temir yo‘l kesishmasi



Shlagbaumli temir yo‘l kesishmasi

7-MASHG'ULOT

VELOSIPEDDA YURISH QOIDASI

Taqiqlovchi yo'1 belgilarini eslab qoling va chizing.




Velosipedda harakatlanish taqiqlanadi.

Buni Siz bilishingiz kerak!

Velosipedda quyidagicha yurish mumkin.




Velosipedda quyidagicha harakatlanish mumkin emas.



1-Topshiriq


Rasmga diqqat bilan qarang.



Yozing: bu yerda kim qoidabuzar va nima uchun?

2-Topshiriq


Ko'rsatilgan kvadratga qaysi yoshdan boshlab, ko'chada velosiped haydash mumkinligini yozing.



- yoshdan boshlab


3-Topshiriq

Rasmga diqqat bilan qarang. Piyoda va haydovchilarning qaysi biri Yo'l harakati qoidalarini buzmoqda?



Qoidabuzarlar kimlar va ularning sonini yozing.

Xotirani kuchaytirish uchun uy vazifasi:
Oltita rasmni eslab qoling.



Endi keyingi varaqni oching.

Bo'sh kataklarga nimani ko'rgan va eslab qolganingizni so'z bilan yozing. Faqat oldingi varaqqa qaramang!

Agarda Siz hamma rasmlarni eslab qolgan bo'lsangiz – xotirangiz yaxshi, undan kam bo'lsa – Topshiriqni qaytadan bajaring.

Inspektorning haydovchi va piyodaga ishora beruvchi vositasi nomini toping.

Ikki g'ildirakli transportlar qanday ataladi?





8-MASHG'ULOT

TRANSPORT VOSITASIDA O'ZINI TUTISH QOIDALARI

Diqqat bilan qarang.



Bu yo'nalishli transportlarga chiqish joyi.

Rasmlarga qarab, transportga chiqish joylari va transportda o'zini qanday tutish kerakligi haqida gapirib bering.



1-Topshiriq

Rasmga qarang va kvadratlarga bolalar o'zlarini to'g'ri tutayotgan bo'lsalar (+) belgisini, noto'g'ri tutayotgan bo'lsalar (-) belgisini qo'yib chiqing.



2-Topshiriq

Mototsikl kolyaskasida o'tirgan bolaning boshida nima bo'lishi kerakligini chizing.



3-Topshiriq

O‘qing va yo‘lovchi bolalarning transportda o‘zlarini tutish qoidalarini eslab qoling.

Ularning majburiyatlari:

- 1) transportga chiqish va undan tushishni trotuar tomondan yoki yo‘l chetidan va faqat transport butunlay to‘xtagandan so‘ng bajarish;
- 2) transport salonida tutqichni ushlab turish;
- 3) haydovchidan faqat to‘xtash joyidagina chipta olish;
- 4) xushmuomala bo‘lish, katta yoshdagilarga, nogiron va o‘zidan kichkinalarga joy berish;
- 5) mototsikl kolyaskasida yurganda motoshlem taqilgan bo‘lishi va ushlag‘ichni mahkam ushlash.

Yo‘lovchi bolalarga taqiqlanadi:

- 1) transport harakati vaqtida haydovchini chalg‘itish va kabina oynasini chertish;
- 2) harakat paytida transport eshigini ochish;
- 3) bosh va qo‘lni oynadan chiqarish;
- 4) 12 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, mototsiklning orqasida o‘tirish;
- 5) 12 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, yengil avtomobilning oldingi o‘rindig‘ida bolalarning maxsus o‘rindig‘i bo‘lmasa, o‘tirish.



9-MASHG‘ULOT

MEN – PIYODAMAN

Nazorat savollari:

1.Nima uchun to‘xtab turgan mashinalar, buta yoki biror-bir to‘siqlar orqasidan yo‘l va ko‘chaga chiqish mumkin emas?

2.Svetoforning rangli ishoralari qanday ketma-ketlikda joylashgan?

3.Piyodalar svetofori ishorasida nimaning rasmi tasvirlangan?

4.Boshqariladigan va boshqarilmaydigan chorrahalar qanday farqlanadi?

5.Agarda chorrahada svetoforlar bir nechta bo‘lsa, yo‘ldan o‘tishda qaysi svetoforga qarash kerak?

6. Agar chorrahaning burilish joyida yo‘lning qatnov qismi chetida turganda, qanday xavf bo‘lishi mumkin?

7.Yo‘lning qatnov qismidan o‘tayotganda qaysi tomonga qarash kerak?

8.To‘liq to‘xtash va tormoz masofasi nima?

9.Tormoz masofasining uzunligi nimaga bog‘liq?

10. Temir yo‘llardan o‘tish joyida shlagbaum nimaga kerak?

11.Temir yo‘ldan qanday o‘tish kerak?

12.Necha yoshgacha velosipedchi ko‘cha va yo‘llarda yurmasligi kerak?

13.Velosipedda uchganda qanday harakatlar qilish mumkin emas?

14.Yo‘nalishli transportdan tushgandan so‘ng, yo‘lni qanday kesib o‘tish kerak?

15.Necha yoshdan boshlab bolalar avtomobilning oldingi o‘rindig‘ida o‘tirishlari mumkin?

16.Haydovchi yo‘lda piyodani ko‘rganda, avtomobilni darhol to‘xtata oladimi?

17.Transportda, yo‘llarda, ko‘chalarda yurish madaniyati nima?

Ko'cha va yo'llarda yurish qoidalarini qaytaring

Yo'lni kesib o'tishingiz mumkin:

- 1) svetoforning yashil ishorasida;
- 2) piyodalar o'tish joyidan.

Agarda yaqin joyda chorraha yoki o'tish yo'lkasi bo'lmasa, yo'lni to'siqlar, ajratuvchi yaxlit chiziqlar bo'lmagan va ikki tomondan ham yo'l yaxshi ko'rinib turgan joydan, yo'lni faqat ko'ndalangiga (to'g'riga qarab) kesib o'tiladi. Yo'lni kesib o'tishdan avval, albatta mashinalar yo'qligiga ishonch hosil qiling.

Shuni yodda tuting:

Yo'lning qatnov qismiga yaqinlashganda, albatta to'xtang va xayolan o'zingizga ayting: «Ehtiyot bo'!» So'ngra hamma tomonga, yana bir marta chapga, o'rta borganingizdan so'ng esa – o'ngga qarang. Yo'lni faqatgina xavfsizlikni ta'minlagandan so'nggina kesib o'ting.

Siz yo'llarning har xil ekanligini bilishingiz zarur.

Bir tomonlama harakatlanish yo'lidan o'tishda faqatgina mashinalar harakatlanayotgan tomonga emas, balki qarama-qarshi tomonga ham qarang. Chunki u tomondan maxsus yoqilgan signal mayoqchasi bilan «Tez yordam», o't o'chirish, avariya xizmati mashinalari kelib qolishi mumkin.

Mashinalar o'ngdan va chapdan ikki-uch qator bo'lib **ikki tomonlama harakatlanadigan yo'lidan o'tayotganda**, faqatgina piyodalar o'tish yo'lkasidan va kattalar hamrohligida o'tish mumkin.

Tramvay yo'lidan o'tishda ham xuddi shu qoidalariga rioya qiling, lekin tramvay yo'lining oldida to'xtang, atrofga, so'ngra chapga va o'ngga qarang. Tramvay va mashinalar bo'lmasa – yo'lni kesib o'ting. Tramvay yo'lining o'rtasida to'xtash mumkin emas, bu juda ham xavflidir, chunki tramvaylar bir-biriga qarama-qarshi yurishi mumkin.

Shahar tashqarisidagi yo'lni kesib o'tishda ham xuddi shu qoidalariga rioya qilinadi va yo'l ilonizi singari egri-bugri va burilishlardan iborat bo'lsa, juda ham ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki mashinalar kutilmaganda paydo bo'lishi mumkin, shu sababli doimo atrofni ko'zdan kechirish zarur.